



ayol ishchi-xodimlarning tizimda tutgan o'rnini alohida ta'kidlab, mamlakatimizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning ayollar hayotidagi muhim ahamiyati, ularning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki ko'rsatkichlarini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va amaliy natijalarini qayd etdi.

Shu o'rinda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Ozoda Parpiboyeva "O'zkimyosanoat" AJda xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, ularning har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni e'tirof etdi.



Uchrashuv so'nggida "O'zkimyosanoat" AJ va Oila va xotin-qizlar qo'mitasi o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Memorandumda nazarda tutilgan hamkorlik yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarning tegishli bandlarini nafaqat Toshkent viloyatida, balki butun respublikamizda sifatli va o'z vaqtida bajarilishini so'zsiz va sifatli ta'minlash;
- Toshkent viloyatidagi "Ayollar daftari" da ro'yxatda turgan 1000 nafar xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash va madaniy dam olishlarini ta'minlash;
- Kasanachilikni rivojlantirish doirasida "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarini xodimlarining oila a'zolarini pillachilik va ipakchilik yo'nalishlarida qo'shimcha ish bilan ta'minlash va tarmoq xodimlari oilalarining daromadini yanada oshirish;
- Aksiyadorlik jamiyatidagi oilalar va xotin-qizlarning muammolarini aniqlash va ularni hal etishga ko'maklashish, ijtimoiy og'ir ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish;

- Mehnat jamoasidagi xodimlar, birlashtirilgan hududdagi oilalarning ma'naviy-axloqiy holatini o'rganish va yaxshilash, muammolarini o'rganish va ijobiy hal etish borasida sayyor qabullar tashkil etish;
- Iqtidorli, ilimli yosh xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "O'zkimyosanoat" AJ stipendiyasini joriy qilish;
- "O'zkimyosanoat" jamiyatida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarni Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, "Mo'tabar ayol", "Ibratli oila" ko'krak nishoniga tavsiya etib borish kabi bandlarni hamkorlikda amalga oshirish.







## **“O‘zkiyosanoat” AJ Matbuot xizmati**

**source:**

*"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-va-oila-va-xotin-qizlar-ko-mitasi-o-rtas-id>